

TERMIN TUSHUNCHASI VA TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING TURLARI

Jumyazova Shaxnoza Faxriddin qizi

O'ZDJTU tarjimonlik fakulteti 1-kurs magistranti

jumyazovashaxnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim qatlami tilshunoslikning muhim qatlami xisoblangan termin va terminologiya haqida muhim ma'lumotlar hamda olimlarning ta'riflari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, terminologik birliklarning turi, sohalar kesmida vazifasi va yuridik sohaga oid terminlar.

Abstract. In this article, important information about terms and terminology, which are considered an important layer of linguistics, as well as definitions of scientists, are analyzed.

Key words: term, terminology, type of terminological units, function in cross-section of fields and terms related to the legal field.

Аннотация. В данной статье анализируются важные сведения о терминах и терминологии, которые считаются важным пластом языкознания, а также определения ученых.

Ключевые слова: термин, терминология, тип терминологической единицы, функция в разрезе отраслей и терминов, относящихся к правовому полю.

Hozirgi o'zbek adabiy tili terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida tilshunoslar turlicha fikr yurtdi.

V.P. Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. (Danilenko 1377; 8). Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. X. Xayuellning qayd etishga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminal yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz. (Whewell 1367). Termin so'zini turlicha tushunish mavjud.

Chunonchi, mantiqshunos (logik)lar uchun termin aniq obektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tadbqiq etuvchi so'z hisoblanadi. Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. H. Jamolxonov terminga



munosabatda bo‘lar ekan quyidagicha yozdi; “Terminlar fan-texnika, adabiyot, sa‘nat va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo‘llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birlikdir: gulkosa, (botankiada); to‘rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi. “Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil; boshqa tillardan so‘z olish, ya‘ngi so‘z yasash, ayrim fanniy kategoriyalarning leksikalashuvi so‘z birikmasining semantic bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda O‘zbek terminologiyasining boyish, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimning barqarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Bunda G‘arb falsafasi va matniqning asosiy matnlari va mualliflariga qaytishga to‘g‘ri keladi.

Masalan, Dekart (1599–1650) Rearmur (1683–1757) va Buffon o‘qish bugungi kunda terminologiya fanini tavsiflashda qo‘llanilayotgan asosiy so‘z va tushunchalar avvaldan ma‘lum bo‘lganligini aniqlashga imkon beradi. 17–18 asr olimlarining tabiat ob‘ektlarini tasvirlashga kirishgan asarlari. Boshqa tomondan, terminologiya fani til va tillar bilan shug‘ullanishi kerak uning qamrovi” belgi”, “tushuncha”, va “ob‘ekt” o‘rtasidagi bog‘lanishni aniq qilishdir.

“Belgi” (fransuzcha “konseptsiya”) odatda fikr birligi sifatida qaraladi. Aniqrog‘i, biz yashayotgan dunyo ko‘p turdagi narsalardan iborat. Olimlar odatda bunday narsalarni, “ob‘ektlar” yoki “obektlar” deb nomladi. Terminologiya fanida nazariya bilan mustahkamlangan nom” ob‘ekt”ni moslashtirishimiz va nishonga olishimiz kerak. Bu sxema Aristoteldan (asosan Organon va Metafizikada) kelib chiqqan. Bu O‘rta asrlarning Sxolastik falsafasi bo‘lgan Stoikchilar tomonidan tez-tez qayta ishlatilgan.

Zamonaviy falsafada Kodillakdan Gusserlargacha qo‘llanilgan Evgen Vyuster terminologiya fan bo‘lishi mumkinligini ko‘rgan edi. (1931). O‘zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkey til (VII–X) terminologiyasi, eski turk tili (XII–XIV) terminologiyasi, eski O‘zbek adabiy tili (XV–XX asr) terminologiyasi sho‘rolar davri O‘zbek tili terminologiyasi va istiqloq davri O‘zbek tili terminologik leksik tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo‘lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi. Eski O‘zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi ta‘sir ya‘ni ekstralingvistik omillarning roli salmoqli bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining asoschilari Alisher Navoiy, uning Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Yaqiniy singari salaflari, Bobur, Muhammad Solih, Ogahiy, Munis kabi izdoshlari tomonidan ta‘lif etilgan badiiy, tarxiy, ilmiy asarlar leksik boyligi tahlilidan kelib chiqqan holda aytish joizki, o‘zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalanilgan tarzda termin yaratish bu davr uchun ancha sarmahsul usul hisoblangan. O‘zbek tili terminlar tizimning boyishida (ana shu ikki usul asosiy ro‘l o‘ynaydi) morfologik (affiksatsiya) va sintaktik so‘zlarga so‘zlarni qo‘shish) usul bilan so‘z yasalishi tushuniladi.

Ilmiy terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.

Morfologik usul bilan termin yoki so'z yasash shunday usulki, unda o'zak negiziga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi va yangi termin hosil qilinadi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi 60000 dan ortiq so'zning 75-80% so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasalganligi fikrimizni isbotlaydi.

-lik, -chilik, -gar, -dor, -uvchi, -chi kabi so'z yasaovchi qo'shimchalar yurispredensiya tarmoqlarida faol qo'llaniladi. Masalan adavokat-lik, ijrochilik, bosqinchilik, josuslik, terrorchilik, davlatchilik, mahalliychilik, millatchilik, javobgar, da'vogar, gumondor, manfatdor, jinoyatchilik va h.k.

Ilmiy terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi.

Sintaktik usul bilan termin yasalishi deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi. Til taraqqiyoti jarayoni ma'lum bir so'z birikmasi yagona leksik ma'no kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi. Ya'ni birikma xarakteridagi terminlar nominative vazifani bajarib, bir yagona termin shakliga o'tadi. Bu hodisa sohaga oid tarxiiy terminlarning yasalishda ham faol bo'lgan. Masalan; mingboshi, ellikboshi, yuzboshi, qozikalon, mirzaboshi kabi qo'shma so'zlar shu yo'l bilan yuzaga kelgandir. Tuzilishi jihatidan birikma terminlar tarkibidagi so'zlarning o'zaro birikishga qarab bir necha xilga bo'lish mumkin. Masalan: ot+ot: ish haqi, ish vaqti, sud ajrimi, sud ijrochisi, davlat suvereniteti; sifat+ot: intizomiy jazo, ma'muriy jazo, madaniy meros; ot+harakat nomi: mol-mulkni, musodara qilish, pora berish, pora olish va h.k. Albatta, terminlarning bunday holda yuzaga kelishi tilning ma'lum bir qonuniyatlariga asoslanadi. So'z birikmalarini hosil qilishda ishtirok etuvchi moslashuv, boshqaruv, bitishuv hodisalari endi terminlar tizimida sintaktik birliklar emas, balki lug'aviy birliklar – biriliklar emas, balki lug'aviy birliklar – birikmali terminlarning yuzaga kelishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Sodda terminlar, Yasama terminlar, Qo'shma terminlar mavjud.

Sodda terminlar

Tarkibida so'z yasovchi va o'z o'zgartiruvchi affikslarning bor yo'qligiga qaramay, yolg'iz bir o'zakdan yoki negizdan paydo bo'lgan, birgina lug'aviy ma'noli qism bo'lgan so'z hisoblanadi. Masalan ; shtab, avtomat (harbiy) panjara, shpal, yog'och (yog'ochsozlik), guvoh(yuridik).

Sodda terminlar ikki guruhga bo'linadi: Tub terminlar-yolg'iz o'zakdan hosil bo'lgan terminlar: bola, mebel.

Yasama terminlar – tub terminlarga biror yasovchi affikisning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan terminlar: mebelsozlik, duradgorlik (yog'ochsozlik) jinoyatchi(yuridik).

Qo'shma termin-ikki va undan ortiq sodda terminlarning birikuvidan tuzilgan terminlar. Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar kabi o'z qatlam so'zlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi.

Yuridik terminlarni tuzilishiga ko'ra tasniflash hisoblanib, Sh. Kochimov quyidagicha tasniflaydi: – Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, tuzilishi jihatidan o'zbek



yuridik terminlari bir, ikki, uch, ba'zan to'rt va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Masalan:

1. Ikki so'zdan tashkil topgan terminlar: jinoyat kodeksi, Oliy sud, qonun ijodkorligi, oliy jazo, ma'muriy ishlar, jinoiy jazo kabilar.

2. Uch so'zdan tashkil topgan terminlar: ozodlikdan mahrum etish, jinoyat-qidiruv bo'limi, sudning boshqaruv majlisi, qonun chiqaruvchi organ kabilar.

3. To'rtta so'zdan tashkil topgan terminlar: dastlabki huquqiy holatni tiklash (restitutsiya), tibbiy xarakterdagi majburlov choralari kabilar.

4. Beshta so'zdan tashkil topgan terminlar: ikki yoki undan ortiq sudlangan shaxs (retsdivist), hokimiyat va xizmat vakolatlaridan chetga chiqish kabilar.

O'zbek yuridik terminlarining asosiy qismini bir va ikkita so'zdan tuzilgan terminlar tashkil qiladi. Uch va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan terminlar juda kamdan kam uchraydi.

Xullas, terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda aksini topadi: semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik munosabatga kirishadi); vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi); semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikaldir); tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ularning boshqa sistemaga xosligiga to'sqinlik qilmaydi); shakllanish yo'llari va vositalari (terminologiyada umumadabiy til so'z yasaliishi vositalarining harakatimaxsuslashgan, standart, turg'un modellarni ishlab chiqishga bo'ysunadi) (Danilenko, 1977; 208).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidulla Dadaboyev, O'zbek terminologiyasi: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti talablar uchun o'quv qo'llanma - T.: O'qituvchi, 2019.

2. Handrik J.Kockaert, fried Steurs. Handbook of Terminology – How to build terminology science Volume 1 -P.34..

3. S.U. Mavlonova, M. Sag'dullayev. "O'zbek tilining sohada qo'llanish ": Samarqand Davlat Meditsinasi, Chorvachilik va Biotexnologiya universiteti toshkent filiali 1 kurs talablar uchun o'quv qo'llanma -T.: o'qituvchi, 2023.

4. Sabirov.A. "Termin va Terminologiyaga berilgan tariflar " maqola ISSN:2181-2489 Volume 2 ISSUE 6 :2022, 446 b.

5. Rajabov.S. "Qonun tili terminologiyasining tasnif masalasi" maqola ISSN:2181-2454 Volume 2 ISSUE 1 2022, 263 b.

6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000. 7. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т.: Адолат. 2009.

8. tsuull.uzhttp://library.navoiy-uni.uz >...

9. <https://cyberleninka.ru>